



AI YORDAMIDA INGLIZ TILINI O'RGANISH: KELAJAK TA'LIMINING YANGI BOSQICHI

To'liqinova Sevinch Oybek qizi

SamDCHTI Ingliz tili fakulteti talabasi

sevinch20072701@icloud.com

Ilmiy rahbar: **Rasulova Sokhiba Ulug'bekovna**

SamDCHTI dotsenti v.b., PhD

rasulovasokhib@gmail.com

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada ingliz tilini o'rganishda sun'iy intellekt (AI) texnologiyalarining naqadar katta ahamiyatga ega ekanligi va o'zini har tomonlama tahlil qilinadi. Shuningdek, zamonaviy ta'lim tizimida AI o'zining turli platformalari yoki mobil ilovalari orqali o'qibchilarning vaqtini tejash, ularga yil o'rganish jarayonida qulayliklar yaratishi bilan ommalashib bormoqda. Shu sababli maqolada ma'lum bir chet tilini, jumladan ingliz tilini o'rganish jarayonida talaffuzni yaxshilash, grammatika va lug'at boyligini oshirish, tinglab tushunish hamda yozish ko'nikmalarini rivojlantirish maqsadida sun'iy intellektdan foydalanishning samarali va sinalgan usullari yoritiladi. Qolaversa, AI o'quv jarayonida qanday afzalliklar bera olishi, jumladan, interaktiv ta'lim muhitini shakllantira olish va mustaqil til o'rganish mumkin ekanligi ko'rib chiqiladi. Bundan tashqari, sun'iy intellektdan foydalanishda yo'l qo'yiladigan ayrim xato va kamchiliklar ham tahlil etiladi.

KALIT SO'ZLAR: Sun'iy intellekt, AI texnologiyalari, innovatsion ta'lim, interaktiv o'rganish, onlayn platformalar, mustaqil ta'lim, zamonaviy pedagogika, ta'lim texnologiyalari, mobil ilovalar.

KIRISH

Bugungi kuni chet tillarini, ayniqsa ingliz tilini o'rganishga bo'lgan ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Ingliz tilining qamrov darajasi xalqaro muloqot, ilm-fan, ta'lim va boshqa ko'pgina sohalarda oshib borayotganligi sababli ingliz tilini o'qitishda samarali va zamonaviy usullar dam foydalanish masalasi bugungi ta'lim tizimining dolzarb muammolarining bir sanaladi.

So'nggi yillarda sun'iy intellekt texnologiyalari turli xil sohalarda, jumladan ta'limda ham rivojlangan holda katta o'zgarishlarni yuzaga keltirdi. Masalan, AI tomonidan yaratilgan mobil ilovalar, turli dasturlar va onlayn platformalar o'quvchilar uchun chet tilini mustaqil o'rganishda ko'plab qulayliklarni yaratmoqda. Qolaversa, yuqorida ta'kidlangan texnologiyalarning yana bir qulayligi foydalanuvchilarning bilim darajasini aniqlay olish, u bilan yakkama-yakka ishlay olish, talaffuzni tekshirish va bir vaqtning o'zida xatolarini tahlil qilib bera olishdan iborat. Bundan tashqari, AI asosidagi ta'lim vositalari an'anaviy ta'lim tizimlaridan o'quv jarayonini yanada interaktiv va qiziqarli qila olishi bilan farqlanadi. Misol tariqasida, onlayn chatbotlar, birga muloqot qilish mumkin bo'lgan ilovalar va aqlli tarjima tizimlaridan foydalanish o'quvchilarda tinglab tushunish, gapirish, yozish va o'qish ko'nikmalarini rivojlantirishga samarali ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari, AI dan foydalanish orqali o'quvchilar vaqti va masofa bilan bog'liq muammolarni hal qila olishlari hamda uydan chiqmagan holda til o'rganishlari mumkin.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Hozirgi kunda sun'iy intellekt bilan ingliz tilini o'qitish masalasi zamonaviy ta'limda eng ko'p o'rganilayotgan tadqiqotlardan biri hisoblanadi. Jumladan, ushbu sohada til o'rganish



jarayonidagi lingvistik, psixologik va texnologik jihatlarini tahlil qilishga qaratilgan ilmiy izlanishlar olib borilgan. Yuqoridagi mavzuda ilmiy izlanish olib borgan olimlardan biri S. Krashen o'zining "input hypothesis" nazariyasida til o'zlashtirishning eng muhim omili deya tushunarli kiruvchi axborot (comprehensible input)ni ko'rsatadi va tilni o'zlashtirish o'quvchilarning hozirgi darajasidan biroz yuqori bo'lgan tilga duch kelganda sodir bo'ladi" deya ta'kidlaydi. (Krashen, 1982). Ushbu fikr sun'iy intellekt yordamida faoliyat olib boradigan platformalar uchun muhim ahamiyatga ega, chunki ularning ijobiy tomonlaridan biri foydalanuvchining darajasiga mos materiallarni avtomatik tanlab bera olishidir. Qolaversa, yana bir olim Jeremy Harmer chet tilini o'qitishda kommunikativ yondashuv katta ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlab, "o'quvchilar tildan mazmunli kontekstlarda qanchalik ko'p foydalanishsa, shunchalik mahoratli bo'ladi" (Harmer, 2007) deb yozadi. AI yuqoridagi fikrlarning dalili sifatida yil o'rganishda turli xil yordamlarni bersa oladi. Jumladan, og'zaki nutqni oshirish uchun chatgptdan yordamchi speaker yoki imtihon oluvchi kishi sifatida foydalanish mumkin. Ushbu jarayonda ushbu sun'iy intellekt o'quvchini tinglab, uning qilgan xatolarni tahlil qilib bera oladi, qolaversa, faqat bu bilan cheklanmay o'quvchiga o'z javobidanda yuqoriroq darajada yozilgan namuna ham taqdim stadi. Bu holat esa til o'rganuvchilarning oson va tez interaktiv tarzda tillarni o'rganishiga zamin yaratadi. Bundan tashqari, Sun'iy intellektning umumiy nazariy asoslari S. Russell va P. Norvig kabi olim va tadqiqotchilar tomonidan keng yoritilgan. Ular AI tizimlarini "atrof-muhitni idrok etadigan va muvaffaqiyatni maksimal darajada oshirish uchun harakat qiladigan tizimlar" deb ta'riflaydi (Russell & Norvig, 2021). Bu ta'rif ta'lim jarayonida AI tizimlarining moslashuvchan xususiyatlarini tushuntirishga asos bo'la oladi. Misol tariqasida, "Duolingo" platformasi til o'rganuvchini chet tilini qiziq va "o'yin misoli" o'rganishini ta'minlash maqsadida turli bonus yoki yashirin sandiqchalar bilan taqdirlaydi hamda bu jarayon o'rganuvchilarni yanada ko'proq shug'ullanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Yuqorida tahlil qilingan adabiyotlar sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalarning ingliz tilini o'qitishdagi ahamiyati individual yondashuv va samaradorlikni oshirishga xizmat qila olishini tasdiqlaydi.

METODOLOGIYA

Ushbu maqolada AI texnologiyalarining ingliz tilini o'rganish jarayoni tutadigan foydasini aniqlash uchun bir necha ilmiy tadqiqot metodlaridan foydalanildi. Avvalambor, masalaga tahliliy (deskriptiv) metod bo'yicha yondashilib, mavzuga doir bo'lgan ilmiy maqolalar, adabiyotlar, elektron manbalar, xalqaro tadqiqotlar tahlil qilindi. Ushbu adabiyotlar sun'iy intellektning ta'lim tizimidagi ahamiyati, ingliz tilini o'qitish jarayonida foydalanilayotgan platformalar hamda ularning ingliz tiliga o'rganuvchilarga foydasi tegishida yordam bera oladi. Maqola jarayonida nazariy asoslarini shakllantirishga adabiyotlarni tahlil qilish usuli xizmat qilgan bo'lsa, mavzu davomida unga yondosh tarzda qiyosiy tahlil metodidan ham samarali ravishda foydalanildi. Ushbu metod orqali ingliz tilini o'rganish davomida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanayotgan talabalar va o'quvchilar hamda an'anaviy ta'lim tizimiga sodiq qiluvchi til o'rganuvchilar solishtirilib, diqqat bilan kuzatildi hamda ularning til ko'nikmalaridagi o'zgarishlar tahlil qilindi. Xususan, Duolingo, ChatGpt, Grammarly, kabi sun'iy intellekt asosidagi platformalardan muntazam ravishda foydalanish o'quvchilarda kam ball olishga sabab bo'ladigan talaffuz, lug'at boyligi, grammatika va yozma nutq ko'nikmalarining rivojlanishiga yordam bera oladi. Bundan tashqari, ingliz tilini o'rganayotgan til o'rganuvchilarning sun'iy intellekt texnologiyalariga bo'lgan munosabati qanday ekanligini aniqlash maqsadida so'rovnoma metodidan foydalanildi. So'rovnoma foydalanuvchilarning ushbu texnologiyalardan foydalanishining sabablari, ularning



foydalari va qolaversa, sodir bo'layotgan muammolar haqida ham ma'lumotlar tahlilini amalga oshirdi. Olingan natijalarning tahlil qilinishi sun'iy intellekt vositalarining ta'lim sifatiga ta'siri to'g'risida xulosalar chiqarilishiga yordam bera oldi. Shuningdek, olingan ma'lumotlar sun'iy intellekt texnologiyalarining ingliz tilini o'rganishda tegadigan foydasini ilmiy jihatdan asoslab berildi. Shu orqali aytish mumkinki, AI texnologiyalari kelajak ta'limining muhim va innovatsion yo'nalishlaridan biri bo'la oladi.

NATIJA VA MUHOKAMALAR

Maqola davomida ingliz tilini o'rganish jarayonida sun'iy intellekt texnologiyalarining sezilarli darajada ijobiy ta'siri aniqlandi. Shuningdek, AI yordamida yaratilgan onlayn platformalar va ilovalar chet tilini mustaqil, qulay va vaqtni tejaydigan darajada tezroq o'rganish imkoniyatini o'quvchilarga yarata olishi bilan ajralib turadi. Yuqoridagi tahlil qilingan adabiyotlar va metodlarga ko'ra, sun'iy intellekt vositalaridan muntazam foydalanish orqali o'quvchilar o'zlarining grammatika, lug'at boyligi, talaffuz va yozma nutq ko'nikmalarini sezilarli darajada rivojlantira olishi kuzatildi. Xususan, ChatGPT, Grammarly, Duolingo kabi platformalar o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshirishga yordam bera oladigan vositalar sanaladi. Interaktiv mashqlarning mavjudligi esa o'quvchilardagi faollikni yanada oshiradi. Qolaversa, ko'pchilik foydalanuvchilarning fikricha, sun'iy intellekt texnologiyalarining asosiy jihatlaridan biri vaqtning tejashilishi va istalgan joyda ta'lim olish imkoniyatining mavjudligidir va ushbu omillari bilan an'anaviy ta'limdan birmuncha ajralib turadi. Bundan tashqari, AI tizimlari foydalanuvchining darajasiga qarab moslashuvchan bo'la oladi. Masalan, A2 darajadagi ingliz tilini o'rganayotgan o'quvchi uchun xuddi shu darajaga mos bo'lgan matnlar va audiolarnu bera oladi. Bu holat esa o'quvchining o'ziga katta tezlik bilan keyingi darajaga chiqishiga va murakkab mavzularni ham tez va samarali o'rganishiga zamin bo'la oladi. Natijada ta'lim sifati yaxshilanadi hamda o'quvchilarning mustaqil ishlash ko'nikmalari rivojlanadi. Shuningdek, AI texnologiyalarining yana bir ijobiy jihati o'quvchilarda kuzatiladigan talaffuz va tinglab tushunish borasidagi muammolarni ham samarali yo'l bilan yecha olishidir. Jumladan, til o'rganuvchilar ChatGptdan foydalanishsa, ushbu sun'iy ong o'quvchi qaysi so'zni talaffuz qilayotganligu va hatto ushbu so'zning to'g'ri talaffuz qilingan namunasini ham tez va oson tarzda tashlab beradi. Bu esa o'rganuvchini soatlab lug'at kitoblarni titkilashining oldini oladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, ingliz tilini o'rganish jarayonida AI texnologiyalarining o'rni ahamiyatli. Xususan, AI yordamida yaratilgan platformalar va dasturlar orqali o'quvchilarda til ko'nikmalarini mustaqil ravishda rivojlantirish hamda o'quv jarayonini qiziqarli va zavqli tarzda tashkil etish imkoniyati shakllantiriladi. Qolaversa, grammatika, talaffuz, lug'at boyligi, tinglab tushunish va yozma nutq ko'nikmalarini rivojlantirish sun'iy intellekt texnologiyalari bilan yanada samaraliroq ekanligi aniqlandi. Shuningdek, AI texnologiyalari o'zining tezkor tahlil qila olish ko'nikmasi, makon va zamonga bog'liq bo'lmagan ta'lim tizimini yarata olganligi bilan ham ahamiyatga molik.

Umuman olganda, kelajakdagi ta'lim tizimi ingliz tilini o'rganish jarayonini sun'iy idroksiz tasavvur qila olmaydi. Yaqin kelajakda AI texnologiyalarining yanada rivojlanishi esa ta'lim tizimida innovatsion yondashuvlarning keng qo'llanilishiga hamda xorijiy tillarni o'qitish sifatining oshishiga xizmat qila oluvchi omillarning asosiysiga aylanishi tayin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Principles and Practice in Second Language Acquisition. — Pergamon Press, 1982.



2. The Study of Second Language Acquisition. — Oxford University Press, 1994.
3. Artificial Intelligence: A Modern Approach. — Pearson Education, 2021.
4. Computer-Assisted Language Learning: Diversity in Research and Practice.
5. Teaching by Principles: An Interactive Approach to Language Pedagogy. — Pearson Education, 2007.
6. Digital Technologies in Language Learning. — Palgrave Macmillan, 2013.

